

# QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA QORAMOLLARDA PARAMFISTOMATOZ KASALLIGIGA QARSHI AYRIM ANTIGELMINTIKLARNI QO'LLASH VA UNING NATIJALARI

**Bazarbayeva A.A.**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

**Annotatsiya.** Maqlada qoramollarda paramfistomatoz kasalligiga qarshi ayrim antgelmintik dori preparatlarini sinovdan o'tkazish va uning natijalari bayon qilingan.

**Аннотация.** В статье описаны испытания некоторых антгельминтных препаратов против парамфистоматоза у крупного рогатого скота и его результаты.

**Summary.** The article describes the testing of some antgelmintic drug preparations against paramfistomatosis in cattle and its results.

**Kalit so'zlar.** Paramfistomatoz, Paramhistomum, Liorchis, Gastrothylax, Calicophoron, Liorchis Scotial, Paramhistomum ichikawai, Calicophoron calicophorum, C.erschawi, Gastrothylax crumenifer.

**Kirish.** Pramfistomatoz bu – kavshovchi hayvonlarning o'tkir va surunkali oqimlarda kechuvchi trematodoz kasalligi bo'lib, uni *paramfistomatata* kenja turkumiga kiruvchi qo'zg'atuvchisi hayvonlarning katta qornida, qisman to'r qornida va 12 – barmoqli ichagida parazitlik qilishi tufayli qo'zg'atilib, kasallik holsizlanish, hazm organ faoliyatining izdan chiqishi, tananing turli qismlarida shishlarni hosil bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Kasallikning o'tkir kechishida 50-100% buzoqlar nobud bo'ladi, surunkali shaklida hayvonlarning mahsuldorligi kamayadi, ba'zan o'lim kuzatiladi.

Paramfistomatzlardan qoramollarda va qo'ylerda Paramhistomum, Calicophoron, Gastrothylax va Liorchis avlodlariga mansub bir necha tur trematoda parazitlik qiladilar.

Ular ichida O'zbekiston sharoitida eng keng tarqalganlari: Liorchis scotiae, Paramhistomum ichikawai, Calicophoron calicophorum, C.erschowi va Gastrothylax crumenifer.

Hayvonlarning zararlanish manbalari bo'lib, botqoqli, namli yaylovlar va invaziya bo'yicha nosog'lom (zararlangan mollyuskalar mavjud bo'lgan) suv havzalari hisoblanadi. Invaziyani tarqatish manbalari – kasal hayvonlar va paramfistomatlar lichinkalari bilan zararlangan mollyuskalar. Invaziya manbai bo'lib, yovvoyi kavsh qaytaruvchilar ham bo'lishi mumkin. Zararlangan mollyuskalar qishlab chiqadi va invaziyaning manbai bo'lib qoladi. Adoleskariylar chidamsiz, biotoplardan quriganda tez nobud bo'ladi. Odatda paramfistomatozning o'tkir shakli buzoqlar yaylovga haydagandan 1-2 oydan keyin kuzatiladi. Parazitning voyaga etgan shakllari hayvonlar organizmida bir necha yil yashab, ularni katta va to'r qorinlarda yilning hamma fasllarida topish mumkin. Paramfistomatoz o'tkir va surunkali shaklda kechadi. O'tkir paramfistomatoz 1,5-2

yoshdagi buzoqlarda kuzatiladi va trematodalarning ichak va shirdonning shilliq paradalarida migratsiya qilish davriga to‘g‘ri keladi. Hayvonlarda ishtaha yo‘qoladi, holsizlanadi, uzoq vaqt yotadi, ko‘zga ko‘rinadigan shilliq paradalari qonsizlanadi. Ich ketish ich qotishi bilan almashib turadi. Surunkali paramfistomatozni voyaga etgan gelmintlar chaqirib, trematodalarning oshqozon oldi bo‘limlarida parazitlik qilishidan kelib chiqadi. Kasallikning bu shaklida oshqozon oldi bo‘limlari atoniyasi kuzatiladi, hayvonlar keskin ozg‘inlanadi, ko‘pincha yotadi, qoramollarning sut mahsuloti kamayadi.

**Tekshirish uslublari.** Ilmiy tadqiqot ishlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ellikqala tumanidagi “Amir oq chashma” fermer xo‘jaligi va Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialining “Veterinariya meditsinasi va farmokologiyasi” kafedrasi qoshidagi o‘quv laboratoriyasida olib borildi.

Qoramollarning paramfistomatoz kasalligi gelmintoz kasallik bo‘lib, ularning ovqat hazm qilish organlarida, oshqozon oldi bo‘limlarida (katta qornida, ba’zan to‘r qornida) parazitlik qiladi. Kasallikga qarshi kurashish uchun o‘z vaqtida gelmintsizlantirish ishlarini olib borish va kasallikga qarshi yangi antgelmintiklarni izlab topish va ularni qo‘llash usullarini takomillashtirish bu kasallikga qarshi kompleks tadbirlarni ishlab chiqarishda asosiy o‘rin tutadi. Bajarilgan tadbirlar foydali bo‘lishi uchun antgelmintiklar yuqori samara berishi va ular organizm uchun zararsiz, ekologik toza bo‘lishi kerak. Yuqoridagilarga asoslangan holda bizlar ayrim dorilarni ishlab chiqarish sharoitida paramfistomatoz kasalligi bilan zararlangan qoramollarda sinovdan o‘tkazdik. Bizlar olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ellikqala tumanidagi “Amir oq chashma” fermer xo‘jaligi va aholining shaxsiy qoramollarida olib borildi.

**Tekshirish natijalari.** Fermer xo‘jaligida qoramollarning paramfistomatoz kasalligining qo‘zg‘atuvchilari bilan zararlanish darajasini aniqlash maqsadida, shirkat xo‘jaligidagi va aholi shaxsiy qoramollaridan 40 boshdan ajratilib, Rolenol va Klozatrem dori preparati bilan gelmintsizlantirildi. Qoramollardan chiqgan tezak yig‘ib olinib, ketma-ket yuvish usulida tekshirildi. Tadqiqot natijalari birinchi jadvalda keltirilgan.

Birinchi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, “Amir oq chashma” fermer xo‘jaligida 40 bosh qoramollar gelminsizlantirilganda 8 boshida paramfistomatoz kasalligi qo‘zg‘atuvchilari topilib, kasallik bilan zararlanish darajasi 20 % ni tashkil qildi. Aholi qoramollarining 40 boshi tekshirilganda 6 boshida paramfistomatoz kasalligini qo‘zg‘atuvchilari va tuxumlari topilib, paramfistomatozning zararlanish darajasi 15 % ni tashkil etdi.

### 1-jadval

#### Xo‘jalikdagi qoramollarning paramfistamatoz kasalligi bilan zararlanish darajasi

Guruuhlar	Hayvon bosh soni	Ketma-ket yuvish usulida tekshirilganda	
		Paramfistomatoz	%
1-guruuh	40	8	20
2-guruuh	40	6	15

Antgelmintik dorilarning paramfistomatoz kasalligi qo‘zg‘atuvchilariga ta’siri ikkinchi jadvalda keltirilgan.

## 2-jadval

### Qoramollarning paramfistomatoz kasalligida qo‘llanilgan antgelmintiklarning samaradorligi

Guruhlari	Hayvon bosh soni	Antgelmintik nomi	Qo‘llanilishi	Antgelmintikning gelmintlarga ta’siri (%)
1-guruh	40	Rolenol (0,5 ml/ 10 kg)	Teri ostiga	90 %
2-guruh	40	Klozatrem (5 mg/1 kg)	Teri ostiga	70 %

Ikkinchi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Rolenol dori preparati har bir qoramol tirik vaznining 10 kg ga 0,5 ml miqdorda qo‘llanilganda antgelmintikning gelmintlarga ta’siri 90 % ni tashkil etdi. Klozatrem dori preparati har bir qoramol tirik vaznining 1 kg ga 5 mg miqdorda teri ostiga qilinganda antgelmintikning gelmintlarga ta’siri 70 % ni tashkil etdi.

**Xulosalar:** Ilmiy tekshiruv natijalarimiz shuni ko‘rsatdiki, fermer xo‘jaligida va aholining shaxsiy qoramollarida paramfistomatoz kasalligi uchrab turishi va ularga qarshi o‘z vaqtida antigelmintik dorilarini berish yaxshi samara berishi aniqlandi.

Yuqoridagi tajribalar shuni ko‘rsatdiki, Rolenol 0,5 ml/10 kg miqdorda qo‘llanilganda antgelmintikning gelmintlarga ta’siri 90 % ni, Klozatrem 5 mg/1 kg tana og‘irligiga teri ostiga qilinganda antgelmintikning gelmintlarga ta’siri 73 % ni tashkil etishi aniqlandi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Daminov A.S. Samarqand viloyati biogiotsenozlarida paramfistomatidozlarning mavsumiy dinamikasi. // Jurnal Zooveterinariya-Toshkent, 2015.B 21-22 №6.
2. Salimov B.S., Daminov A.S., Uroqov K.X. Qishloq xo‘jalik hayvonlari va parrandalar trematodozlari. // Monografiya. Samarqand 2016. 219 b.
3. Азимов Д.А., Дадаев С., Акрамов Ф.Д., К.А. Гельминты жвачных животных Узбекистана Т.: ФАН, 2015. -222 с.
4. Qaypanov M.T. Qoraqalpog’iston Respublikasida qoramollar gelmintozlarining mavsumiy dinamikasi. // ”Fan yutuqlari va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish istiqbollari” ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Samarqand, 2005. 134-135 b.
5. Salimov B.S., Erimov S., Tayloqova M. Qo‘ylar paramfistamotozlari to‘g‘risida mulohazalar. // Jurnal Zooveterinariya. Toshkent, 2015. №11. B.014-16

## PARAMFISTOMATOZLARNING TARQALISHI

### Bazarbayeva A.A.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasи, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali